



# TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



## NUROTA TIZIMLARINING SAMOVIY GAVHARI: DEHIBALAND QISHLOG'I

**Zoyirova Gulnoza Husniddin qizi**

*Samarqand Davlat Universiteti 1-bosqich talabasi*

**Ilmiy rahbar: Abbosova Maftuna Subhonovna**

*Samarqand Davlat Universiteti dotsenti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Navoiy viloyati Nurota tumaning eng baland choqqilaridan biri-Dehibaland qishlog'ining keng qamrovli tadqiqiga bag'ishlanadi. Unda qishloqning geografik joylashuvi, "Dehibaland" toponimining etimologik tahlili va hududning mudofaa quvvatini ko'rsatuvchi qadimiy Qo'rg'on qoldiqlari yoritilgan. Shuningdek, qishloqning hayot manbai bo'lgan muqaddas Chashma, Imom Hasan Imom Husayn hamda Muhammad Hanifiya ziyoratgohlari, mashhur cho'ponlar sulolasi hamda o'ziga xos "qizil to'n" kiyish an'analari manbalari va dala tadqiqotlari asosida tahlil qilingan. Maqola hududning etnoturistik salohiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar;** Dehibaland, Nurota, ziyoratgoh, Imom Hasan va Imom Husayn, qizil to'n, chorvachilik, etnoturizm, Muhammad Hanifiya, "Xon yo'li", chashma, qorg'on.

**Kirish;** Nurota tog'lari o'zining asriy sirlarini bag'rda saqlab kelayotgan ulkan xazinaga o'xshaydi. Bu xazinaning eng qimmatli durdonalaridan biri-bulutlar bilan bo'ylashgan Dehibaland qishlog'idir. Ushbu maskan nafaqat o'zining zilol suvlari va musaffo havosi, balki insoniyat sivilizatsiyasining qadimiy qatlamlarini o'zida mujassam etgan madaniyati bilan qadrlidir. Dehibaland –bu o'tmishning aks sadosi va tabiatning betakror san'at asari birlashgan muqaddas tuproqdir.

1. Dehibaland qo'rg'oni; Qadimiy mudofaa ramzi.

Qishloqning eng baland va strategik nuqtasida joylashgan Qo'rg'oni uning qadimiy tarixidan dalolat beradi.

-Tarixiy vazifasi; Ushbu qo'rg'on o'rta asrlarda mudofaa inshooti vazifasini o'tagan. U yerdan butun vodiya va Nurota tizmalariga olib boruvchi yo'llar kaftdek ko'rinib turadi. Bu qo'rg'on karvon yo'llarini kuzatish va dushman xavfidan ogohlantirish nuqtasi bo'lgan.

-Arxitekturasi; Qo'rg'on poydevori va devorlari asosan tabiiy tog' toshlaridan tiklangan. Bugungi kunda uning qoldiqlari saqlanib qolgan bo'lsa-da, u qishloqning mustahkam o'tmishlaridan darak berib turibdi.

2. Hayot manbai. Zilol chashma.

Dehibalandning borlig'i va barakasi uning chashmasi bilan bog'liq.

-Shifobaxsh suvi; Qishloq markazidagi chashma yer ostidan chiqib keluvchi musaffo va mineral moddalarga boy suv manbaidir. Mahalliy aholi bu suvni muqaddas deb biladi.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



-Afsonalar; Rivoyatlarga ko'ra, bu chashma va uning atrofidagi yashilik muqaddas ziyoratgohlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, suvning tozaligi aholining uzoq umr ko'rinishiga sabab bo'ladi. Chashma atrofidagi asriy daraxtlar esa ziyoratchilar uchun so'lim go'shadir.

### 3. Ma'naviyat maskani.

Qishloqning ma'naviy markazi bo'lgan Imom Hasan Imom Husayn hamda Muhammad Hanifiya ziyoratgohlari xalq e'tiqodining go'zal namunasi. Bu yerdagi me'yoriy obidalar, ayniqsa, usta Abdurayim tomonidan ishlagan marmar ustunlar san'at durdonasi hisoblanadi. Majmuadagi qadimiy masjid va uning marmar ustunlari mintaqa me'morchiligining nodir namunasi. Muhammad Hanifiya ziyoratgohi Hazrati Alining o'g'li nomi bilan bog'liq qadamjo demakdir.

### 4. Dehibalandning "Tayoq tutgan sultonlari". Mashhur cho'ponlari.

Qishloq iqtisodiyoti va hayot tarzining ajralmas qismi - chorvachilikdir. Dehibalandlik cho'ponlar tog' sharoitida mol boqishning hadisini olgan haqiqiy ustalardir. Qishloqda Zoyir bobo, Sano bobo, To'raqul bobo, Hakim bobo, Olim bobo kabi o'z ishining ustalari o'tgan. Ularning har biri podani boshqarishda o'ziga xos "hushtak" yoki "tayoq urish" uslubiga ega bo'lgan. Ular qaysi giyoh qachon qayerda chiqishi, qaysi biri foydali, qaysi buloq suvi shifobaxshligini va bo'ron kelishini tabiat belgilaridan bilishgan.

-Chorva barakasi; Dehibaland ning tog' havosida va dorivor giyohlari bilan boqilgan mollarining go'sht va sut mahsulotlari o'zining mazasi bilan ajralib turadi.

### 5. Kiyinish madaniyati. Qizil to'n va cho'ponlar qiyofasi.

Dehibaland cho'ponlari va oqsoqollarining tashqi ko'rinishi ularning mardligi va irodasidan dalolat beradi.

-Qizil to'n (chopon). Bu hududda qadimdan qizil rangli, paxtali to'nlar kiyish an'anasi mavjud. Qizil rang tog'liklarda energiya va jasorat ramzi sanalgan. Cho'ponlar kiya digan qalin va jiyakli choponlar ularni tog'ning qahraton sovuqlaridan ham, qattiq shamollaridan ham asragan. Bugungi kunda bu choponlar etnoturistlarning eng sevimli eksponatiga aylangan. Darhaqiqat, cho'ponlik - payg'ambarlar merosi hisoblanadi. Islom dinida barcha payg'ambarlarimiz singari, payg'ambarimiz Mustafo (s.a.v.) ham yoshliklarida cho'ponlik qilib, chorva boqqanlar. Bu mashg'ulot ularga sabr-toqat, rahm-shafqat va ulkan mas'uliyat kabi oliyjanob fazilatlarni o'rgatgan bo'lib, Dehibaland kabi tog'li qishloqlarda hamon davom etib kelayotgan cho'ponlik kasbi aslida o'sha muborak va muqaddas sunnatlarining davomidir.

**Xulosa;** Dehibaland-bulutlarga tutashgan tog'lar, qo'rg'onlar, zilol chashmalar va mard cho'ponlar diyori. Bu maskan o'zining tarixiy obidalari va tirik an'analari bilan nafaqat Navoiy viloyatining, balki butun yurtimizning faxridir. Qishloqning har bir toshi va suvi insonni ma'naviy poklikka va mehnatga chorlaydi.

Nurota bag'rida baland bir qo'rg'on,

Chashmasi jannatdan keltirar darak.

Cho'ponlar mardligi - sunnati Rasul,

Sizga ta'zim aylar Dehibaland - shon!





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



### Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Zohidov.P. ‘‘Nurota me‘moriy yodgorliklari va etnografiyasi’’. Toshkent,1994
- 2.Sukhareva .O.A. ‘‘O‘rta Osiyo xalqlari liboslari tarixi’’, Moskva, 1982.
- 3.To‘rayev.Sh. ‘‘Nurota cho‘ponlari ; ‘‘Tajriba va an‘analari’’, Navoiy ,2015.
- 4.Hasanov . H. ‘‘O‘rta Osiyo joy nomlari tahlili’’, Toshkent . 1970
- 5.Navoiy viloyati davlat arxivi .’’Dehibaland qishloq xo‘jaligi va qo‘rg‘onlari tarixi’’ hujjatlar to‘plami.

